

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

G‘AFUROV ADXAMJON BAXROMJON O‘G‘LI

**PAXTA TOLALI IPLARDAN NANOTEXNOLOGIYALARNI
QO‘LLAGAN HOLDA FILTRBOP MATO OLISH**

**05.06.02- To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

G‘afurov Adxamjon Baxromjon o‘g‘li

Paxta tolali iplardan nanotexnologiyalarni qo‘llagan holda filtrbop mato
 olish..... 3

Гафуров Адхамджон Бахромджон угли

Изготовление фильтрующей ткани из хлопчатобумажной пряжи с
 использованием нанотехнологий..... 23

Gafurov Adkhamjon

Making filter fabric from cotton yarn using nanotechnology..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
 List of published works..... 48

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

G‘AFUROV ADXAMJON BAXROMJON O‘G‘LI

PAXTA TOLALI IPLARDAN NANOTEXNOLOGIYALARNI
QO‘LLAGAN HOLDA FILTRBOP MATO OLISH

05.06.02- To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/T2519 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (namdtu_info@edu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Parpiyev Xabibulla
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Valiyev Gulam Nabidjanovich
texnika fanlari doktori, professor

Ro'zibayev Nuriddin Nurali o'g'li
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.15.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «25» aprel soat 13:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998) 69-234-14-85, (998) 69-234-1996. e-mail: namdtu_info@edu.uz , Namangan davlat texnika universiteti 12-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (157-raqam bilan ro'yxatga olingan).(Namangan shahri, Islom Karimov ko'chasi 12-uy, Tel. (998) 69.234-14-85) e-mail: namdtu_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «13» aprel kuni tarqatildi.
(2026 yil «13» yanvar № 84-raqamli reestr bayonnomasi).



Q.M.Xolliqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

J.K.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda so‘ngi yillarda filtrlash texnologiyalariga oid tadqiqotlar asosan ekologik muammolarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va sanoat chiqindi suvlarini tozalashga qaratilgan. Kimyo, energetika, oziq-ovqat, tibbiyot, farmatsevtika va atrof-muhit muhofazasi kabi tarmoqlarda tozalovchi filtrlardan foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, suyuq va gaz muhitlarini tozalashda qo‘llaniladigan filtribop to‘qimachilik materiallariga ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda global filtribop to‘qimachilik materiallari bozorining hajmi 2024-yilda 4,1 milliard AQSh dollaridan oshgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2034-yilga kelib 7,5 milliard AQSh dollariga yetishi bashorat qilinmoqda. Bozorning yillik o‘sish sur‘ati (CAGR) 6,22% atrofida baholanmoqda¹. Bu borada, jumladan ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, sanoat chiqindi suvlarini kamaytirish, havoni va suv resurslarini ifloslanishdan himoya qilishga doir global ehtiyoj va talablar ortib borayotgan sharoitda, ushbu yo‘nalishning samaradorligini oshirishda filtrlash, nanofiltrlash, chiqindisiz texnologiyalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda hozirgi kunda aksariyat filtr materiallari sintetik tolalarga asoslangan bo‘lib, ularning ekologik xavfsizligi, parchalanish muddati va inson salomatligiga ta‘siri bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, tabiiy tolalar, ayniqsa paxta tolasi, ekologik toza, qayta tiklanadigan, inson organizmi uchun xavfsiz, biologik parchalanadigan, barqaror filtr materiallarini yaratish, ularning texnologik hamda amaliyotdagi samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan yuqori samaradorlik bilan foydalanib paxta tolali iplar asosida filtribop to‘qimachilik materiallarini zamonaviy texnologiyalar orqali jumladan, nanostrukturali materiallar va yuqori haroratga chidamli filtr matolar ishlab chiqarish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda to‘qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston -2030” strategiyasida, jumladan Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirishda sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solishda yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘ygan korxonalarni faol rag‘batlantirish tizimini joriy qilish² bo‘yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, mahalliy paxta tolasini chuqur qayta ishlash hamda undan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega, ekologik va

¹ <https://www.precedenceresearch.com/fabric-filter-market>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11-sentabr 2023 yildagi PF-158-sonli farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

sanoat talablariga javob beradigan filtribop to'qimachilik materiallarini olish texnologiyalarini joriy etish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025 — 2028-yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, Shuningdek, 2024-yil 19-avgustda Vazirlar Mahkamasining 517-sonli "Ichimlik suv ta'minoti va oqava suv tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnika-texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining II «Energetika, energiyava resurs tejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Filtr matolar ishlab chiqarishda nanotexnologiyalardan foydalanib materiallarning tarkibi, tuzilishi, samaradorligi va ekologik talablarga muvofiqligi kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan Y. Yang, X. Li, X. Zheng, Z.Chen, Q.Zhou, Y.Chen, S.Farhadi, M.Farzaneh, S. A.Kulinich, B.Pokroy, S.Kang, L.Mahadevan, J.Aizenberg, D.Angelova, I.Uzunov, S.Uzunova, A.Gigova, L.Minchev va boshqalar.

Texnik to'qimalar ishlab chiqarish va to'qimalarni suv shimish va kapillyarlik xossalari parametrlarini optimallashtirish bo'yicha O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: D.N.Kadirova, A.D.Daminov, S.S. Raximxadjayev, X.Parpiyev, D.G'.Aliyeva, A.S.Dolimov, R.Karimovlarning olib borilgan ilmiy tadqiqotlari natijasida tolali materiallarning fizik-mexanik ko'rsatkichlarini yaxshilash hamda filtrlash samaradorligini oshirish bo'yicha salmoqli natijalarga erishilgan.

Shu bilan birga ishlov berish sharoitlari qulayligi va keng ko'lamli ishlab chiqarish imkoniyati yo'qligi hamda filtribop mato assortimentini kengaytirish, filtribop matolarini filtrlash qobiliyatini tubdan o'zgartirish, yog'/suv aralashmalarini ajratish sabablari bilan bog'liq bo'lgan kompleks ilmiy tadqiqotlar hozirgi kunda amaliy yoki nazariy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining **AL-21122144** "Mis tarkibga asoslangan nanozarrachalarning o'lchamlari va uni antibakterial o'z-o'zidan xromogen paxta tolali materiallarda qo'llash" O'zbekiston-Xitoy xalqaro (2023-2024) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta tolali iplardan nanotexnologiyalarni qo'llagan holda filtribop to'qimachilik materiallarini olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mavjud filtr matolar, ularning foydalanish ko'lamini, filtr matolariga qo'yilgan talablar va filtr matolarni ishlab chiqarishni tadqiq qilish;

paxta tolali iplardan oddiy o'rilish asosida to'qima ishlab chiqarish va uning fizik-mexanik xossalarini aniqlash;

nanotexnologiya asosida ishlab chiqariladigan filtr matosining fizik-mexanik xossalarini nazariy tadqiqi orqali bashoratlash;

paxta tolali matoga mis oksidi (CuO) birikmasi va stearin kislota (STK) qoplash orqali supergidrofobik/superoleofil filtrbop mato olish;

politetrafloroetilen suvli dispersiyasini paxta matosiga purkash orqali supergidrofobik/superoleofil filtrbop mato olish;

olingan supergidrofobik/superoleofil filtr matosi suv bilan aloqa burchagini (WCA) o'rganish;

supergidrofobik/superoleofil filtr matosi kislota, ishqor, yuqori harorat, mexanik ishqalanishga chidamliligini tadqiq etish;

olingan supergidrofobik/superoleofil filtr matosi oqava suv tarkibidan har xil turdagi yog'larni ajratish samaradorligini aniqlash;

supergidrofobik/superoleofil filtr matosini o'tkazuvchanlik oqimi va qayta ishlash qobiliyati, turli xil yog'lar bilan ifloslangan suvni tozalash imkoniyatini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida paxta tolali yakka iplar, bosh o'rilishli to'qima, supergidrofobik/superoleofil filtrbop paxta matosi, turli xil yog'lar bilan ifloslangan suvni tozalash olingan.

Tadqiqotning predmeti yakka ip, yakka iplardan to'qilgan bosh o'rilishli supergidrofobik/superoleofil filtrbop mato tayyorlash texnika va texnologiyasi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida to'qimachilik materiallarini sinash, nazariy mexanikaning to'qima matosiga ta'sir etuvchi kuchlarni tahlil qilish, supergidrofobik/superoleofil filtrbop mato tayyorlash, tajriba natijalarini qayta ishlash, tayyorlangan mato orqali yog'/suv aralashmasini filtrlash samaradorligi hamda mato mustahkamligi va notekisligini baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta tolali matoga mis oksidi (CuO) birikmasi va stearin kislotasini (STK) qoplash hamda politetrafloroetilen (PTFE) suvli dispersiyasini purkash orqali supergidrofobik/superoleofil filtr matosi olingan;

Paxta tolali matoga politetrafloroetilen (PTFE) suvli dispersiyasi, mis oksidi (CuO) birikmalarini qoplash orqali filtr mato olish usuli ishlab chiqilgan hamda qoplamalarining matoga mustahkam bog'lanishi va ierarxik dag'al tuzilma hosil bo'lishi aniqlangan;

olingan supergidrofobik/superoleofil filtr matosining suv bilan aloqa burchagi (WCA) $156,5^{\circ}$, suv o'tkazmaydigan va o'z-o'zini tozalash xususiyati hamda kislota, ishqor, yuqori harorat, mexanik ishqalanishga chidamliligi isbotlangan;

olingan supergidrofobik/superoleofil filtr matosi har xil turdagi yog'larni oqava suv tarkibidan ajratish samaradorligi 98,7% va o'tkazuvchanlik oqimi ($1800 \text{ L.m}^{-2}.\text{soat}^{-1}$) dan ortiq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

filtrbop mato olish uchun yakka yigirilgan paxta tolali iplaridan bosh o'rilish asosida olingan to'qimani fizik-mexanik ko'rsatkichlari aniqlanib ishlab chiqarishga tavsiya etilgan;

mustahkam va bardoshli paxta tolali to'qimaga mis oksidi (CuO) birikmasi va stearin kislotasi (STK) qoplash va politetrafloroetilen (PTFE) suvli dispersiyasini paxta matosiga purkash orqali supergidrofobik/superoleofil filtr matosini ishlab chiqarishga tavsiya etilgan;

politetrafloroetilen (PTFE) suvli dispersiyasini paxta tolali to'qimaga purkash orqali va mis oksidi (CuO) cho'kmasi paxta mato yuzasiga mustahkam bog'langan va iyerarxik dag'al tuzilishga ega bo'lishi tadqiq etilgan;

olingan supergidrofobik/superoleofil filtr matosi suv bilan aloqa burchagi (WCA) $156,5^0$, suv o'tkazmaydigan va o'z-o'zini tozalash xususiyatiga ega ekanligi tadqiq etilgan;

supergidrofobik/superoleofil filtr matosi kislota, ishqor, yuqori harorat, mexanik ishqalanishga kuchli qarshilik ko'rsatish xususiyati hamda har xil turdagi yog'li oqava suvlarni ajratish samaradorligi 98,7% tadqiq etilgan;

supergidrofobik/superoleofil filtr matosining o'tkazuvchanlik oqimi ($1800 \text{ L.m}^{-2}.\text{soat}^{-1}$ dan ortiq) va qayta ishlash qobiliyati yog'-moy bilan ifloslangan suvni tozalashi tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot katta hajmdagi tajriba materiallarining statistikasi, olingan tajriba natijalari parallel tajriba natijalariga mos kelishi, paxta tolali iplardan nanotexnologiyalarni qo'llagan holda yuqori samarali filtr mato olishning nazariy va amaliy modellarning o'zaro yaqinliklari, filtr sifatiga ta'sir qiluvchi omillarning statistik tahlil qilinganligi hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati filtrbop mato olish uchun yakka yigirilgan paxta tolali iplardan bosh o'rilish asosida to'qima olish tavsiya etilganligi, olingan filtrbop matoni fizik-mexanik ko'rsatkichlari aniqlanganligi va paxta tolali iplardan nanotexnologiya usulida supergidrofobik/superoleofil filtrbop to'qimachilik materiallari olishga erishilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati supergidrofobik/superoleofil filtrbop paxta matosi kislota, ishqor, yuqori harorat, mexanik ishqalanishga kuchli qarshilik ko'rsatish xususiyati, har xil turdagi yog'li oqava suvlarni ajratish samaradorligi 98,7% va o'tkazuvchanlik oqimi hamda qayta ishlash qobiliyati supergidrofobik/superoleofil filtr matosini turli xil yog'lar bilan ifloslangan suvni tozalashda katta imkoniyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Paxta tolali iplardan nanotexnologiyalarni qo'llagan holda filtrbop mato olish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

nanotexnologiya asosida olingan paxta tolali filtr matosini «ART SOFT TEX» MCHJ va «FABRICTEX» MCHJ («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2025 yil 22-dekabrda №02/06-2938-sonli ma‘lumotnomasi) korxonalarida ishlab chiqarishga joriy etilgan. Natijada taklif etilayotgan filtr matosi sifati hamda oqava suvlarni tozalashdagi samaradorligi mavjud filtrlarga nisbatan suvni filtrlash effekti 14% yaxshilangan, 1 m² filtr matosining tannarxi esa mavjud filtr matoga nisbatan 53% ga arzon ekani aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik sanoatida filtr matolarni suv, oqava suvlarni tozalashning hozirgi holati va istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida asosan to‘qimachilik texnologiyasiga oid jurnallar, maqolalar, ilmiy to‘plamlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy va o‘quv adabiyotlaridan foydalanilgan. Filtrlash suv va oqava suvlarni tozalashning asosi hisoblanadi va har xil eritmalarni suvsizlantirish va konsentratsiyalash kabi turli maqsadlarda ishlatiladi. Bundan tashqari, ilg‘or filtrlash texnologiyasi sifatida filtr matolar (membranalar) katta zarrachalardan tortib molekulyar va ionli kimyoviy turlargacha bo‘lgan moddalarni olib tashlashi mumkin. Filtrlash jarayonida filtr turini va membrana materialini to‘g‘ri tanlash, ko‘pincha samarali ajratishni ta‘minlash uchun eng muhimi hisoblanadi. So‘nggi vaqtlarda yangi polimerik materiallar yakka tartibda yoki aralashtirish jarayonida suv va oqava suvlarni tozalash uchun ishlatilmoqda. Filtr matolar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lsada, filtrlash jarayonlarida klassik materiallardan tortib ilg‘or membranali filtrlı materiallardan foydalanish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha juda kam tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Olib borilgan adabiyotlar tahlili natijalari asosida paxta tolali iplardan to‘qima ishlab chiqarish, nanotexnologiyalarni qo‘llagan holda filtr mato olish jarayonlari, uni ilmiy asoslash masalalari dissertatsiya ishining vazifasi etib belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Paxta tolali iplardan zamonaviy texnologiya usulida filtrbop to‘qimachilik materiallarini olishning nazariy tadqiqi”** deb nomlangan ikkinchi bobida to‘quvchilik materiallarining tuzilishi tanda va arqoq iplarining o‘zaro o‘rilishi ko‘rsatilgan. To‘quvchilik materiallarining tashqi ko‘rinishi, xossalari va qay maqsadda ishlatilishi, uning bir nechta asosiy ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘ladi. Gazlamaning tuzilishini ifodalovchi ko‘rsatkichlaridan biri zichligi bo‘lsa, ikkinchisi ularning o‘rilishidir. Odatda gazlamalarda tanda bo‘yicha zichligi arqoq bo‘yicha zichligiga qaraganda kattaroq bo‘ladi. Lekin ba’zi gazlamalarda (satin, poplin kabi) aksincha ham bo‘ladi. Haqiqiy zichlik gazlamani hosil qiluvchi iplarning yo‘g‘onligiga bog‘liq bo‘ladi. Barcha oddiy o‘rilishlarga xos umumiy xususiyatlar shundaki, raportlar tanda va arqoq bo‘yicha o‘zaro teng, polotno sarja o‘rilishlarda siljish 1 ga teng bo‘ladi, satinda esa ushbu qiymat beriladi. Oddiy polotno o‘rilishda tanda iplari arqoq iplari bilan juda yaxshi bog‘lanadi, natijada gazlamalar mustahkam, o‘ng va teskari tomoni bir xil va tekis bo‘ladi. Dissertatsiyada to‘qimani to‘la taxtlash ko‘rsatkichlari: to‘quv dastgoxini turi va ishchi kengligini tanlash, o‘rilish, to‘qimani tolali materiallar bilan to‘ldirish koeffisienti, to‘quv dastgoxini ishchi kengligini tanlash, to‘qimani taxtlash ko‘rsatkichlari aniqlandi.



1-rasm. Polotno o‘rilish asosida to‘qilgan matodagi tanda iplari tarangligining sxematik ko‘rinishi

bu yerda: F_t - tanda ipning tarangligi, N; P_t -natijaviy kuch, N; N - noma'lum kuch, bu arqoq ipi tomonidan bosim o'tkazuvchi tanda va arqoq ip tarangligining vertikal qismlarini faollashtiradi, N; L_a – tanda va arqoq iplari orasidagi bo'shliq, mm; $h_t/2$ - gazlamadagi tanda ipning egilish to'liqining yarim balandligi, mm; M_s - egilish momenti, N·mm; M_t - reaktiv moment, N·mm; δ_o -boshlang'ich nuqtasida A bo'lgan kuch va X o'qining yo'nalishini aniqlovchi burchak, radian; ABC - tanda ipning o'rta chizig'i.


To‘qima matoni mexanik xossalarini baholash jarayonining simulyatsiyasini belgilaydigan juda muhim parametr-bu geometrik modelni yaratishdan oldin hisoblab chiqilishi kerak bo‘lgan to‘quv asosidagi ip uzunligi hisoblanadi. Shu

$$ft(\rho_a, Fa) = 0.017 \cdot \rho_a + 0.026 \cdot Ft - 0.0036 \quad (4)$$


To'qimaning turli xil to'ldirish parametrlarini va ularning to'qima tuzilishiga va uning strukturaviy bo'lmagan xususiyatlariga ta'sirini o'rganish amaliy qiziqish uyg'otadi (masalan, iplar orasidagi normal bosim kuchlari). Biz tanda ipining (h_t) egilish to'qlini balandligi to'quv g'altagi regulyatori tomonidan oldindan o'rnatilgan to'qima zichligi ta'sirini o'rganamiz. Yuqoridagi ma'lumotlariga asoslangan "Normal bosim kuchi-ipning vertikal diametrlari yig'indisi" munosabati ham hisobga olingan.

O'zaro bog'liqlik quyidagicha (3,4-rasmlarga qarang):

$$f(N) = e^{\left(0,624 - \frac{0,26\left(\frac{N-N_1}{2}\right) - 0,12}{0,43}\right)} + 0,695 \quad (5)$$



3-rasm. "Oddiy bosim kuchi - ipning vertikal diametrlari yig'indisi" munosabati



4-rasm. Tanda ipning egilish to'qlini balandligi va arqoq ipining zichligi o'rtasidagi bog'liqlik

Kichik qiymatlar uchun belgilangan yaqinlashma (approksimatsiya) $N + N_1$ miqdorini biroz ortiqcha baholaydi. Biroq, bu ortiqcha baholash bizga sifatli tavsif (hisob-kitob) berish uchun yetarli bo'ladi. Bizning hisob-kitoblarimizda $N + N_1 > 0.145 N$ sharti bajariladi.

To'quvchilik jarayonlari va texnologik jihozlar tanlashda yuqori unumdorlikka, sifatga va mehnat xavfsizligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Jihozlar tanlanayotganda, gazmaning xususiyatlari va texnologik jarayonlar hisobga olinishi lozim. Bunda dastgohlar va texnik ko'rsatkichlar o'zaro muvofiqligi muhim ahamiyatga ega (1-jadvalga qarang).

Filtrbop to'qimani oqava suv tarkibidagi moyini tozalash jarayonini hossalarini aniqlovchi kiruvchi parametrlarini tadqiq etishda ko'p omilli matematik modellashtirishdan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta'sir etuvchi omillar sifatida kiruvchi omillar x_1 - Konsentratsiya (%), x_2 - Ishlov berishdagi pech harorati ($^{\circ}\text{C}$) va x_3 - Mato yuza zichligi (g/m^2) ko'rsatkichlari olingan. Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarish sathlari va oraliqlarini tanlash keltirilgan. (2-jadvalga qarang)

1-jadval

To'qimani taxtlash hisobini jamlash jadvali

№	Ko'rsatkichlar nomi		Shartli belgi	O'lchov birligi	Art
1.	To'qimani bog'lanish koeffitsiyenti		C	-	7.8
2.	To'qimadagi iplarning o'rtacha chiziqli zichligi		T _{o'r}	teks	30
3.	To'quv dastgohi rusumi				WILTOP WT 9100
4.	To'qima kengligi	Tayyor to'qima	B _t	sm	160
		Xom to'qima	B _x	sm	164.94
5.	To'qima uchun tanda iplari soni		n _t	dona	4210
6.	Umumiy tanda iplari soni		n _{umumiy}	dona	4370
7.	Shodalar soni		n _{shod}	dona	4
8.	1m ² xom to'qima og'irligi		M _m ²	g	146
9.	To'qima yuzasini tolali materiallar bilan qoplanishi:				
	a) Tanda bo'yicha		E _T	%	55.42
	b) Arqoq bo'yicha		E _A		42.4

2-jadval


Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarishi sathlari va oraliqlarini tanlash

Omillar nomi va belgilanishi	O'zgartirish sathlari			O'zgartirish oralig'i
	-1	0	1	
Konsentratsiya, %	0,5	1,75	3	1,25
Ishlov berishdagi pech harorati,	70	85	100	15
Mato yuza zichligi, g/m ²	105	125,5	146	20,5

Regressiya koeffitsientlarini aniqlashda Styudent, matematik modelning adekvatli yoki adekvat emasligini tekshirish maqsadida Fisher me'zonlaridan foydalaniladi. Chiquvchi omil sifatida Y_1 – Yog' va moy uchun o'tkazuvchanlik (L/soat), Y_2 – Suv o'tkazmaslik (L/soat), tanlandi.

Tadqiqot uchun chiqish parametrining xususiyatlarini aniqlash uchun tuzilgan tenglama uch o'lchovli bo'lgani uchun, tahlildagi kirish omillaridan biri $X_i = 0$ (markaziy holat) deb qabul qilinadi va biz ikki o'lchovli grafikni modellarni 3 ta tenglamaga o'zgartirish yo'li bilan tuzamiz.


$$Y_1 = 1635.67 + 144.87x_1 - 139.75x_2 + 76.62x_3 - 38.25x_{1x_2} + 25.50x_{1x_3} + 7.25x_{2x_3} - 97.58x_1^2 - 108.33x_2^2 - 37.58x_3^2$$



5-rasm. Yog' va moy uchun o'tkazuvchanlik miqdorini optimallashtirish bo'yicha modelining grafigi

Yuqorida yog' va moy uchun o'tkazuvchanlik miqdorini mis oksidi konsentratsiyasi, ishlov berishdagi pech harorati, mato yuza zichligi bo'yicha ko'rsatgichlari bog'liqligi (tahlili) izochiziqlari sirtini og'ishi tasvirlangan. (5-rasmga qarang)

$$Y_1 = 1635.67 + 144.87x_1 - 139.75x_2 + 76.62x_3 - 38.25x_{1x_2} + 25.50x_{1x_3} + 7.25x_{2x_3} - 97.58x_1^2 - 108.33x_2^2 - 37.58x_3^2$$



6-rasm. Suv o'tkazmaslik miqdorini optimallashtirish bo'yicha modelining grafigi


Yuqorida suv o'tkazmaslik bo'yicha variatsiya ko'ffisientini miqdorini mis oksidi konsentratsiyasi, ishlov berishdagi pech harorati, mato yuza zichligi bo'yicha ko'rsatgichlari bog'liqligi (tahlili) izochiziqlari sirtini og'ishi tasvirlangan, chizmalardan ko'rinib turibdi (6-rasmga qarang).

1. Yog' va moyni o'tkazuvchanlik (Y1) uchun optimal sharoitlar: Konsentratsiya: 1,75%, Ishlov berishdagi pech harorati: 70–80 °C, Mato yuza zichligi: 105–120 g/m².

2. Suvni o'tkazmaslik (Y2) uchun maksimal natijalar: Konsentratsiya: 3%, Ishlov berishdagi pech harorati: 85 °C, Mato yuza zichligi: 146 g/m².

Dissertatsiyaning «Yog'li aralashmalardan suvni ajratish uchun nanotexnologiya usulida supergidrofob paxta matosini olish» deb nomlangan uchinchi bobida olingan paxta matosiga mis oksidi (CuO) birikmasi va stearin kislotasini (STA) qoplash orqali super suv o'tkazmaydigan (supergidrofob) mato olishga erishilgan. Shuningdek paxta matosiga politetrafloroetilen (PTFE) suvli dispersiyasini purkash orqali bardoshli supergidrofobik/superoleofil filtr matosi tayyorlangan. Olingan filtr mato namunasi turli neft/suv aralashmalarini, shu jumladan emulsiyalangan yog'li suvlarni yuqori ajratish samaradorligiga erishilgan.

Tayyorlangan filtr mato (Cot-CuO-STK) kislotali, gidroksidli va tuzli eritmalar, yuqori harorat, mexanik ishqalanish va yuvish kabi og'ir sharoitlarda o'zining supergidrofobligini saqlay oladi. Olingan filtr matoning suv bilan aloqa burchagi WCA 156,5⁰ bo'lgan supergidrofob mato turli xil yog'lar (dixlorometan, trixlorometan, soya yog'i va n-geptan) uchun yuqori ajratish samaradorligi 98,7% gacha bo'lgan neft/suvni ajratishda katta imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, yog'larni o'tkazuvchanlik oqimi (1800 L·m⁻²·soat⁻¹dan ortiq). Olingan filtr mato har xil turdagi yog'larni ajratishning samaradorligini, o'tkazuvchanlik oqimi va mukammal qayta ishlash qobiliyatini namoyish etdi (7-rasmga qarang).




7-rasm. Mustahkam va bardoshli supergidrofob paxta matosini tayyorlash

Dissertatsiyada foydalanilgan paxta matosi oddiy o'rilishli bo'lib, yuza zichligi 146 g/m², ipning chiziqli zichligi 30 teks (Ne 20), ipdagi buramlar soni K=720 br/m ga teng. Bundan tashqari soya yog'i, mis atsetat (Cu(CH₃COO)₂), stearin kislotasi (CH₃(CH₂)₁₆COOH), natriy gidroksidi (NaOH), Sudan III,

trixlorometan (CHCl_3), etanol, n-geptan (C_7H_{16}) va xlorometan (CH_2Cl_2) dan foydalanildi. Supergidrofob paxta matosi CuO choʻkmasi va stearin kislotasi (STK) qoplash yordamida tayyorlandi. Toza paxta matosini (20x20 sm) CuAc eritmasiga (0,5-3%) botirilib, reaksiyaga kirishish uchun pechda 70 °C haroratda 30 daqiqa qizdirildi. Soʻng mato disterlangan suv bilan yuvildi va CuO biriktirilgan matoni (Cot-CuO) olish uchun 60 °C da 1 soat quritildi. Shundan soʻng, Cot-CuO 1% STK eritmasi yordamida 5 minut davomida vannaga choʻktirildi, keyin 60 °C haroratda quritildi va supergidrofob paxta matosi (Cot – CuO – STK) olindi. Namunalarning sirt morfologiyasini tekshirish Xitoy xalq respublikasi Zhejiang sci-tech universitining laboratoriyasida yuza emissiyasini skanerlash elektron mikroskopi (FESEM), namunalarning kimyoviy tuzilishi Fourier Transform infraqizil spektrometridan (FTIR), rentgenli fotoelektron spektrometr (XPS), kristalli tuzilishli rentgen-diffraktometriya (XRD) bilan aniqlangan. Suv bilan aloqa burchaklari (WCA) 5ml suv tomchilari bilan optik aloqa burchag apparati (JC 2000 C1) bilan oʻlchandi va har bir namunani besh xil joyidan oʻlchash orqali oʻrtacha qiymatlar olindi. Namunalarning uzilish kuchi ($15 \times 5 \text{ cm}^2$) Instron 5967 sinov mashinasi yordamida ASTM D 5035-2006 standart usuli boʻyicha 100 mm/min tezlikda sinovdan oʻtkazildi.


CuO mikro/nano zarralari mato yuzasiga muvaffaqiyatli joylashtirilgani FESEM tasvirlari bilan koʻrish mumkin (8-rasmga qarang). Matodagi toza paxta tolalari silliq yuzalarga ega (8a-rasmga qarang). CuO zarralari sepilgandan soʻng, paxta tolalarida hosil boʻlgan CuO mikro zarrachalari tufayli yuzasi dagʻal xolga aylandi (8b-rasm qarang). CuO zarralari zich va tasodifiy joylashtirilgan boʻlib, tola yuzasi dagʻal holga keldi. STK qoplanganidan soʻng, mato qatlamli tuzilishiga ega boʻldi (8d-rasmga qarang).



8-rasm. Paxta matosini yuzasiga zarralarni qoplashda FESEM tasvirlari: a) Cot, b) Cot – CuO, c) Cot-STK, d) Cot – CuO – STK


Natijalar shuni koʻrsatdiki, mis oksidi CuO choʻkmasi mato yuzasida stearin kislotasi STK ni qoplash uchun foydali boʻlgan mikro/nanozarracha va past sirt energiyasining, mum va nano-papilla bilan tabiiy lotus barglari kabi supergidrofob sirt yaratish uchun omil hisoblanadi. Supergidrofob paxta matosi Cot -CuO -STK

yuzasida 5 soniya ichida suv tomchilarining aloqa deformatsiya jarayonlari ko'rsatilgan (9-rasmga qarang). Ko'rinib turibdiki, sirtga tegib turgan suv tomchisi, qattiq deformatsiyaga qaramay, o'z-o'zidan tozalanadigan yuzani ochib berishi mumkin.



9-rasm. Supergidrofobik filtr matoni suv bilan aloqa burchagi, g'ovaklik va sirt energiyasi xususiyatlari: a) CuAc ni 3% gacha, b) suyuqlikka botirish vaqti, c) suv tomchilarini yopishqoqlik dinamikasi

Amaliy qo'llash vaqtida og'ir sharoitlar material yuzasining o'ta gidrofobikligini yo'q qilishi mumkin, bu esa uning qo'llanilishiga to'sqinlik qiladi. Shunday qilib, supergidrofob paxta matosi Cot-CuO-STK ning chidamliligi tekshirildi va natijalar keltirilgan (10-rasmga qarang).




10-rasm. Cot -CuO -STK ning chidamlilik va suv bilan aloqa burchak ko'rsatkichi: a) kislotali, c) tuzli eritmalar, d) yuqori haroratda, b) sirt morfologiyasi

Matoni 3 kun kislotali va turli eritmalarga botirgandan so'ng, suv bilan aloqa burchagi WCA deyarli o'zgarmas va pH 5-13 bo'lganda 153° dan yuqori supergidrofobiklikni ko'rsatdi (10a-rasmga qarang). Hatto 7 kun davomida eritmalarga botirilganda suv bilan aloqa burchagi WCA 141° - 154° oralig'ida bo'lganligi aniqlandi.

Kuchli kislotali (pH=1) korroziya tufayli mato yuzasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsada (10b-rasmga qarang), bu ishda olingan supergidrofob sirt kislotali va ishqoriy sharoitlarga juda yaxshi qarshilik ko'rsatdi. Bundan tashqari, mato 7 kun davomida (0,9-2,5%) kuchli kislota yoki (10%) tuzli eritmalarga botirilganda, suv bilan aloqa burchagi WCA 146° - 152° oralig'ida bo'lganligi aniqlandi (10c-rasmga qarang). Bo'ktirish kunlarining cho'zilishi bilan suv bilan aloqa burchagi WCA ning kamayishi tuz korroziyasiga bog'liq. Shu bilan birga, mato suv bilan aloqa burchagi WCA bilan suv o'tkazuvchanligini 156° dan ortiq, garchi yuqori haroratda 2 soat davomida ta'sir qilsa ham (10d-rasmga qarang). Barcha natijalar supergidrofob paxta matosi Cot-CuO-STK ning yuqori kimyoviy barqarorligini ko'rsatdi. Matoning mexanik kuchga chidamliligini baholash uchun qum qog'ozining ishqalanishi va yuvish sinovlari o'tkazildi.

Antifouling yani o'z-o'zini tozalash ko'rsatkichlari. Mato yuzasi va suyuqlik orasidagi havo qatlami (11a-rasmga qarang) va suv oqimi bilan purkash tajribasi tufayli supergidrofob paxta matosi Cot-CuO-STK suv o'tkazmaslik kumush oyna hodisasi orqali ham tasdiqlandi (11b-rasmga qarang). Suv oqimi matoga tegishi bilanoq, darhol shar shaklida sakrab tushadi ya'ni shimilmaydi.


Bundan tashqari, ajratish davrlarining supergidrofob paxta matosi Cot-CuO-STK neft/suvni ajratish samaradorligiga ta'siri baholandi (12-rasmga qarang). Tadqiqotda har xil yog'lar, jumladan, trixlorometan, dixlorometan, n-geksan va soya yog'i og'ir va yengil yog'lar sifatida tanlangan.




11-rasm. Suv o'tkazmaslik xossasi: a) kumush oyna hodisasi, b) suvni oqim bilan purkash

Ko'rinib turibdiki, supergidrofob paxta matosi Cot-CuO-STK ning har xil turdagi yog'larni ajratish samaradorligi 98,7% ni tashkil etdi. Ajratish samaradorligi 10 davrdan keyin biroz pasayganini ko'rsatgan bo'lsada, barcha davrlarning samaradorligi 97% dan yuqori darajada saqlanib qoldi.

SSPM neftning suvdan mukammal selektiv sorbsiyasini ko'rsatdi. SSPM suv yuzasida suzuvchi bo'yalgan aralashmaydigan toluol tomchisi bilan aloqa qilgandan so'ng, toluol tezda so'riladi va yuqoriga cho'ziladi (13b-rasmga qarang). Toluolni o'ziga singdirgan SSPM ham yengil va suv o'tkazuvchanligi tufayli suv yuzasida suzib yura oladi (13c-rasmga qarang).



12-rasm. Suv va yog'ning adsorbsiyasini baholash: a) oddiy paxta matosi, b) Cot-CuO-STK ishlov berilgan paxta matosi, c) Cot-CuO-STK asosida neft/suvni ajratish jarayoni, d) har xil moylarni ajratish davrlaridan keyingi samaradorligi



13-rasm. Suv/moyni sorbsiyalash jarayonining fotosuratlar: a-d) sudan qora bo'yog'i, e, f) aralashmaydigan suv va trixlorometan aralashmasi yog'ini ajratish jarayoni, g-i) optik mikrografiylar va yog'/suv emulsiyasining ajratishdan oldin va keyingi fotosuratlar

Toluol suv yuzasidan to'liq so'riladi va SSPM olib tashlanganidan keyin aniq qoldiq toluol kuzatilmadi (13d-rasmga qarang). Bundan tashqari, SSPM tomonidan hech qanday suv so'rilmagan. SSPM tomonidan aralashmaydigan yog'(trixlorometan) va suv aralashmasini ajratish jarayonini kichik o'lchamdagi moy/suvni ajratish moslamasi bilan ko'rsatilgan (13e,f rasmga qarang). 50 ml trixlorometan va 50 ml suvdan iborat moy/suv aralashmasi yuqoridagi shisha idishga quyilganda (13e-rasmga qarang), moy tezda SSPM dan o'tib, superoleofilligi tufayli stakan tubiga 3 daqiqada tortish kuchi yordamida tushdi. Suvni o'tkazmadi va 50ml suv SSPM ustida saqlanib qoldi (13f-rasmga qarang).

Dissertatsiyaning «Paxta tolali iplardan zamonaviy texnologiyalar asosida filtrbop to'qimachilik materiallari ishlab chiqarish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash» deb nomlangan to'rtinchi bobida olingan filtr matosining tannarxi "ART SOFT TEX" MCHJ korxonalarida qo'llanilayotgan mavjud filtr matolari solishtirish orqali iqtisodiy samaradorlik aniqlangan.

Hisoblash ishlari natijasida taklif etilayotgan filtr matosining 1 m² tannarxi 35 446 so‘m tashkil etadi.

“ART SOFT TEX” MChJ yiliga mavjud filtr matosidan 10000 m² miqdorda foydalaniladi. Taklif etilayotgan filtr matosi ishlash muddati yuqori bo‘lganligi uchun 10000 m² filtr matosi foydalanish yetarli bo‘lishi aniqlandi.

Mavjud filtr matosi bo‘yicha yillik xarajat

$$Y_e = 75000 \times 10000 = 750\,000\,000 \text{ so‘m}$$

Taklif etilayotgan filtr matosi bo‘yicha yillik xarajat

$$Y_y = 35446 \times 10000 = 354460000 \text{ so‘m}$$

Korxonaga taklif etilgan filtr matosini joriy qilish orqali yillik tejalgan tejamkorlik

$$S_y = Y_e - Y_y$$

bu yerda:

S_y — korxonaning yillik tejamkorligi (foydasi)

Y_e — amaldagi (eski) filtr matosiga ketadigan yillik xarajat

Y_y — taklif etilayotgan yangi filtr matosiga ketadigan yillik xarajat

$$S_y = 750000000 - 354460000 = 39554000 \text{ so‘m}$$

Hisoblash ishlarini solishtirish maqsadida quyidagi jadval tuzib chiqildi (3-advalga qarang).

3-jadval

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar

t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Amalda	Taklif etilayotgan
1	“ART SOFT TEX” MChJ korxonasida bir yilda oqava suvlarni tozalash uchun ishlatadigan filtr mato	m ²	10000	10000
2	“ART SOFT TEX” MChJ da bir yilda tozalanishi kerak bo‘lgan oqava suv	m ³	100000	100000
3	Filtrlarni almashtirish	m ³	100	100
4	Oqava suvlarni filtrlash effekti	%	85	99
5	Filtr matoni tannarxi 1m ²	So‘m	75000	35446
6	Korxonada bir yilda ishlatiladigan filtr narxi	So‘m	750000000	354460000
7	Korxonada bir yilda filtr matodan yalpi foyda	So‘m	-	395540000

Taklif etilayotgan filtr matosining tannarxi – 1 m² uchun 35 446 so‘mni tashkil etib, mavjud filtr materiallariga nisbatan 75 000 so‘m ya‘ni 53% arzon ekani aniqlandi. Bu esa korxona uchun bir yilda filtr matodan yalpi foyda 395540000 so‘m tejamkorlikni ta‘minlaydi.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya ishi paxta tolali iplardan zamonaviy texnologiya usulida filtribop to‘qimachilik materiallarini olish va ularning suv hamda oqava suvlarni tozalashdagi samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida nazariy, eksperimental va iqtisodiy tahlillar o‘tkazilib, qator muhim xulosalarga erishildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Filtr matolarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan tabiiy (paxta, jun) va sintetik (poliester, poliamid, PEEK, PTFE) tolalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari, ularning kislotali, ishqorli, haroratli muhitlarga chidamliligi, mexanik mustahkamligi va filtrlash samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, to‘qima matolarning o‘rilish turlari (polotno, sarja, satin) va ularning filtrlik xossalarga ta‘siri ko‘rib chiqildi. Filtr matolarni suv va oqava suvlarni tozalashda qo‘llash sohalari, ularning ekologik ahamiyati, sanoatdagi qo‘llanilishi va xalqaro gigiyena standartlariga muvofiqligi tahlil qilindi.

2. To‘quv dastgohida paxta tolali iplardan polotno o‘rilishida filtr mato struktura parametrlarini prognoz qilish bo‘yicha chiziqli bo‘lmagan egilish momenti nazariyasi asosida matematik model ishlab chiqildi. Ushbu model yordamida shakllanish zonasidagi zichlik farqlari aniqlanib, gazlama namunalari uchun optimal texnologik parametrlar belgilandi.

3. Yog‘ va moyni o‘tkazuvchanlik (Y1) uchun: CuO konsentratsiya: 1,75%, harorat: 70–80°C, mato yuza zichligi: 105–120 g/m² ekanligi aniqlandi. Suvni o‘tkazmaslik (Y2) uchun: CuO konsentratsiya: 3%, harorat: 85 °C, mato yuza zichligi: 146 g/m² optimal variantligi aniqlandi. Ushbu ko‘p omilli regressiya modellari natijasida optimal variant deb CuO konsentratsiya: 3%, harorat: 80°C, mato yuza zichligi: 146 g/m² aniqlandi.

4. Paxta matosini CuO ga cho‘ktirish natijasida ierarxik dag‘al yuza hosil bo‘lib, stearin kislotasi esa mato yuzasiga yaxshi bog‘lanishi aniqlandi. Olingan mato (Cot–CuO–STK) 156.5° suv bilan aloqa burchagi (WCA) bilan supergidrofoblik, suv o‘tkazmaslik va o‘z-o‘zini tozalash xususiyatlari aniqlandi.

5. Filtr mato Cot–CuO–STK kislotaga, ishqorga, tuzga, yuqori haroratga, mexanik ishqalanishga va yuvishga nisbatan chidamliligi aniqlanib, turli xil yog‘lar uchun 98.7% gacha bo‘lgan ajratish samaradorligi bilan yog‘/suvni ajratish jarayonida o‘tkazuvchanlik 1800 L·m⁻²·soat⁻¹ dan ortiqligi aniqlandi.

6. Paxta matosiga politetrafloroetilen (PTFE) suvli dispersiyasini purkash orqali bardoshli supergidrofobik/superoleofil filtr matosi tayyorlandi. Olingan filtr mato namunasi turli neft/suv aralashmalarini, shu jumladan emulsiyalangan yog‘li suvlarni yuqori ajratish samaradorligi (≥ 95%) bilan samarali ravishda ajrata olishi, PTFE qoplamasi matoning sirtini supergidrofobik (WCA ≈ 160°) va superoleofil (OCA ≈ 0°) xususiyatlari aniqlandi.

7. Filtr mato namunasi o'zining sirt xususiyatlarini quyidagi ekstremal sharoitlarda saqlab qoldi: qaynoq suv, muzli suv, kuchli kislota (HCl), ishqor (NaOH), tuz (NaCl) eritmaları hamda organik erituvchilar (toluol, kerosin). Ushbu sharoitlarda ham suv bilan aloqa burchagi 157° dan yuqori, suv bilan sirpanish burchagi esa 5° dan past bo'lib qoldi, bu esa uning kimyoviy va termal barqarorligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, SSPM namunasi 50 martalik qayta ajratish davridan so'ng ham yuqori samaradorlik ($\approx 98\%$) bilan neft/suv aralashmalarini ajrata oldi, bu esa uning uzoq muddatli foydalanishga yaroqliligini ko'rsatdi.

8. Taklif etilayotgan filtr materialining tannarxi – 1 m^2 uchun 35 446 so'mni tashkil etib, mavjud filtr materiallariga nisbatan (75 000 so'm) 53% arzon ekani aniqlandi. Bu esa korxona uchun sezilarli tejamkorlikni ta'minlaydi.

9. Taklif etilayotgan texnologiya asosida yiliga $100\,000 \text{ m}^3$ oqava suvni tozalash imkoniyati saqlanib qolgan holda, filtr matolarga sarflanadigan xarajatlar 395 million so'mga kamaytirish imkoniyati aniqlandi.

10. Xomashyo bazasining mahalliy resurslarga asoslanganligi – paxta tolasi, stearin kislota, mis oksidi va atseton kabi komponentlarning O'zbekistonda mavjudligi ishlab chiqarish tannarxini sezilarli darajada pasaytiradi, importga bog'liqlikni kamaytiradi va texnologik mustaqillikni oshiradi.

Umuman olganda, taklif etilgan filtrbop to'qimachilik materialini ishlab chiqarish texnologiyasi texnik, ekologik va iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikka ega bo'lib, uni amaliyotga joriy etish orqali suv resurslarini tejash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish mumkin. Bu esa O'zbekiston Respublikasi uchun ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror sanoat infratuzilmasini shakllantirishda muhim qadam hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ГАФУРОВ АДХАМЖОН БАХРОМЖОН УГЛИ

**ИЗГОТОВЛЕНИЕ ФИЛЬТРУЮЩЕЙ ТКАНИ ИЗ
ХЛОПЧАТОБУМАЖНОЙ ПРЯЖИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ
НАНОТЕХНОЛОГИЙ**

05.06.02-Технология текстильных материалов и первичная обработка сырья

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2021.4.PhD/T2519.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Ученого совета Наманганского государственного технического университета (namdtu_info@edu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net/uz).

Научный руководитель:

Парпиев Хабибулла

кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Валиев Гулам Набиджанович

доктор технических наук, профессор

Рузибаев Нуриддин Нурали угли

доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация:

**Узбекский научно-исследовательский институт
натуральных волокон**

Защита диссертации состоится «25» апреля 2026 года в 13:30 часов на заседании при научном совете DSc.03/2025.27.12.T.15.03 при Наманганском государственном техническом университете (Адрес: Наманган, ул. Южная кольцевая, дом 17, тел. (998) 69-234-14-85, (998) 69-234-1996 e-mail: namdtu_info@edu.uz, Наманганский государственный технический университет, корпус 12, 1-й этаж, зал Учёного совета)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета. (зарегистрирован под № 157). (Адрес: г.Наманган, улица Ислама Каримова, дом 12. тел. (998) 69.234-14-85) e-mail: namdtu_info@edu.uz

Автореферат диссертации разослан «13» апреля 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 84 от «13» января 2026 года).



К.М. Холиков

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

Х.Т. Бобожанов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, доцент

Ж.К. Юлдашев

Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в последние годы исследования в области технологий фильтрации в основном направлены на снижение экологических проблем, эффективное использование ресурсов и очистку промышленных сточных вод. Особое значение придается использованию фильтрующих материалов в таких отраслях, как химическая, энергетическая, пищевая, медицинская, фармацевтическая промышленность и охрана окружающей среды. В частности, с каждым годом растет потребность в фильтрующих текстильных материалах, используемых для очистки жидких и газообразных сред. В настоящее время объем мирового рынка фильтрующих текстильных материалов (фильтрующих тканей) в 2024 году превысил 4,1 млрд долларов США, и прогнозируется, что к 2034 году эта цифра достигнет 7,5 млрд долларов США. Ежегодный темп роста рынка оценивается примерно в 6,22%¹. В связи с этим, в частности, в условиях растущих глобальных потребностей и требований по обеспечению экологической безопасности, сокращению промышленных сточных вод, защите воздуха и водных ресурсов от загрязнения, особое внимание уделяется фильтрации, нанофильтрации, безотходным технологиям для повышения эффективности этого направления.

В настоящее время большинство фильтрующих материалов в мире основаны на синтетических волокнах, и проводится ряд научных исследований их экологической безопасности, времени разложения и воздействия на здоровье человека. В этом направлении приоритетными считаются исследования по созданию экологически чистых, возобновляемых, безопасных для организма человека, биоразлагаемых, устойчивых фильтрующих материалов из натуральных волокон, особенно хлопкового волокна, и по повышению их технологической и практической эффективности. Одновременно с этим одной из неотложных задач является производство фильтрующих текстильных материалов на основе хлопковой пряжи с использованием современных технологий, включая наноструктурированные материалы и термостойкие фильтрующие ткани, с высокой эффективностью использования природных ресурсов.

В нашей республике реализуются масштабные меры по инновационному развитию текстильной промышленности, эффективному использованию ресурсов и производству импортозамещающей продукции. Стратегия «Узбекистан-2030» ставит задачи по увеличению доли технологической продукции, производимой в промышленности, с 25% до 32% за счет эффективного использования местной сырьевой базы и развития промышленности на основе передовых технологий, развития «движущих» отраслей и полного использования промышленного потенциала регионов, расширения сотрудничества с региональными предприятиями в производстве

¹<https://www.precedenceresearch.com/fabric-filter-market>

импортозамещающей продукции крупными предприятиями, а также внедрения системы активных стимулов для предприятий, наладивших промышленное сотрудничество². При реализации этих задач, в частности, важно внедрение технологий глубокой переработки местного хлопкового волокна и получения из него текстильных фильтрующих материалов с высокой добавленной стоимостью, отвечающих экологическим и промышленным требованиям.

Данное диссертационное исследование служит в определенной степени реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 16 января 2025 года № УП-6 “О дополнительных мерах по развитию цепочки переработки в текстильной и швейно-трикотажной промышленности”, в Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-250 от 15 августа 2025 года “Об утверждении Программы управления водными ресурсами и развития ирригационного сектора в Республике Узбекистан на 2025-2028 годы», а также в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 августа 2024 года №517 “О внесении изменений и дополнений в некоторые постановления Правительства Республики Узбекистан в связи с совершенствования системы питьевого водоснабжения и водоотведения”, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Исследование, проведенное в рамках диссертационной работы, соответствует приоритетному направлению развития науки и техники Республики Узбекистан II.«Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. Ряд известных зарубежных ученых внесли большой вклад в решение вопросов, направленных на углубленное изучение таких аспектов, как состав, структура, эффективность и соответствие экологическим требованиям материалов при использовании нанотехнологий в производстве фильтрующих тканей. В частности, это Y.Yang, X. Li, X.Zheng, Z.Chen, Q.Zhou, Y.Chen, S.Farhadi, M.Farzaneh, S.A.Kulinich, B.Pokroy, S.Kang, L.Mahadevan, J.Aizenberg, D.Angelova, I.Uzunov, S.Uzunova, A.Gigova, L.Minchev и другие.

Научные труды видных ученых Узбекистана посвящены производству технических тканей и оптимизации параметров водопоглощения и капиллярных свойств тканей. В результате научных исследований, проведенных Д.Н.Кадировой, А.Д.Даминовым, С.С.Рахимхаджаевым, Х.Парпиевым, Д.Г.Алиевой, А.С.Долимовым, Р.Каримовым, достигнуты значительные результаты по улучшению физико-механических показателей волокнистых материалов и повышению эффективности фильтрации.

В месте с тем, комплексные научные исследования, связанные с благоприятными условиями обработки и отсутствием возможностей для крупномасштабного производства, а также расширением ассортимента

² Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158 <https://lex.uz/ru/docs/6600404>

